

## VII. ISTE'MOL BOZORI


2021 yilning yanvar-iyunida chakana savdo tovar aylanmasi 3 728,3 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 107,7 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 518,4 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 13,9 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 101,9 foizni tashkil etib, 1 209,3 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 32,4 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 2 000,9 mlrd. so'm yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2020 yilning shu davriga nisbatan 111,5 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 53,7 foizga teng bo'ldi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da (2021 yil yanvar-iyun)



2021 yilning yanvar-iyunida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.


Davlat mulki 0,3 mlrd. so'mni yoki o'tgan 2020 yilning shu davriga nisbatan 25,7 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,001 foizni tashkil qildi.

Nodavlat mulki 3 728,0 mlrd. so'mni yoki o'tgan 2020 yilning shu davriga nisbatan 107,7 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,99 foizni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hisobiga to'g'ri keldi va 27,0 foizni tashkil etdi, Baxmal tumani 16,4 foizni, Sharof

Rashidov tumani 15,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, Yangiobod tumani 1,0 foiz, Zafarobod tumani 1,5 foiz va Arnasoy tumani 2,0 foiz ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

### Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



### 2021 yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi


	<i>Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>2021 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jami</b>	<b>3 728,3</b>	<b>107,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	518,4	107,6	13,9
kichik tadbirkorlik	3 209,9	107,7	86,1
shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi	2 000,6	111,5	53,7

### 2021 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana tovar aylanmasi

(umumiy ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda)


	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3 728,3</b>	<b>107,7</b>	<b>2 629,8</b>	<b>105,5</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 005,4	100,1	5 542,4	98,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	75,4	104,7	1 615,3	103,1
Baxmal	611,0	137,8	3 813,7	134,9
G‘allaorol	264,4	105,2	1 503,4	103,0
Sharof Rashidov	578,5	101,5	2 539,6	98,8
Do‘stlik	111,7	104,1	1 672,1	102,4
Zomin	509,5	104,2	3 034,5	102,0
Zarbdor	128,8	122,8	1 454,0	119,8
Zafarobod	56,6	100,1	1 115,9	98,7
Mirzacho‘l	92,0	106,4	1 741,9	104,6
Paxtakor	134,3	105,7	1 764,7	103,7
Forish	124,6	107,8	1 324,1	106,2
Yangiobod	36,1	103,6	1 258,3	101,8

**2021 yil yanvar-iyun oylarida, chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur‘atlari**  
(ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, % da)




Viloyatning barcha hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Baxmal tumani (137,8 %), Zarbdor tumani (122,8 %), Forish tumanida (107,8 %), Mirzacho'l tumanida (106,4 %), Paxtakor tumani (105,7 %), G'allaorol tumani (105,2 %), Arnasoy tumani (104,7 %) va Zomin tumanida (104,2 %) kuzatildi.

**2021 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da**




Hududlar bo'yicha olib qaralganda, kichik tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hududlar Jizzax shahri (886,9 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (577,7 mlrd. so'm), Zomin (490,8 mlrd. so'm), G'allaorol (257,8 mlrd. so'm) va Baxmal (257,7 mlrd. so'm) tumanlari hisoblanadi.

**Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi mlrd. so'm, o'sish sur'ati, % da (2021 yil yanvar-iyun)**



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (28,7 mlrd. so'm) hamda Sharof Rashidov (10,4 mlrd. so'm), Zomin (4,0 mlrd. so'm) va G'allaorol (3,6 mlrd. so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Yangiobod (0,4 mlrd. so'm), Arnasoy (0,4 mlrd. so'm) va Zafarobod (0,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi (mln. so'm)**  
(2021 yil yanvar-iyun)



**2021 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning ulgurji tovar aylanmasi**

2021 yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo aylanmasi 986,3 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 102,1 foizni tashkil etdi.


Yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi 257,9 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,2 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 99,0 foizni tashkil etib, 728,4 mlrd. so'mga yetdi hamda umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 73,9 foizni tashkil qildi.

**Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi**  
(2021 yilning yanvar-iyun)

	<i>Hajmi, (mlrd. so‘m)</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>986,3</b>	<b>100,0</b>	<b>102,1</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	544,6	55,2	106,2
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1,7	0,2	15,5
Baxmal	84,4	8,6	185,3
G‘allaorol	25,2	2,6	102,9
Sharof Rashidov	57,0	5,8	81,4
Do‘stlik	97,2	9,9	187,2
Zomin	94,1	9,5	93,2
Zarbdor	12,0	1,2	34,7
Zafarobod	6,4	0,7	31,6
Mirzacho‘l	2,4	0,2	13,5
Paxtakor	8,9	0,9	40,1
Forish	48,0	4,9	95,5
Yangiobod	4,5	0,5	93,4

### Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



Ulgurji savdo aylanmasi hajmi o'tgan yilga nisbatan 102,1 foizni tashkil etdi, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 99,0 foizni, hajmi esa 728,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (55,2 %) hisoblanadi. Shuningdek, Do'stlik (9,9 %) va Zomin (9,5 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Arnasoy (0,2 %), Mirzacho'l (0,2 %), Yangiobod (0,5 %), hamda Zafarabod (0,7 %) tumanlari esa eng past ulushga ega.